



# Aholining qarz majburiyatlarini bajarish holati

Mart 2022

---


Moliyaviy barqarorlik departamenti tomonidan tayyorlandi.

Fikr va takliflaringizni [udjumanazarov@cbu.uz](mailto:udjumanazarov@cbu.uz) elektron manziliga yuborishingiz mumkin.


## Aholining qarz majburiyatlarini bajarish holati

Aholining bank kreditlari bo'yicha qarz yuki darajasini ifodalovchi bir qator ko'rsatkichlar mavjud bo'lib, kreditlarning yalpi ichki mahsulotga nisbati, kreditlarning aholi daromadlariga nisbati, qarzga xizmat ko'rsatish nisbati<sup>1</sup> kabi ko'rsatkichlar shular jumlasidandir. Xalqaro tajribaga ko'ra qarzga xizmat ko'rsatish nisbati (debt service ratio – DSR) amaliyotda keng qo'llanilib, jami aholining yoki aynan qarz oluvchilar daromadlarining qancha qismi qarzni (asosiy qarz hamda foiz to'lovi) so'ndirish uchun sarflanishini ifoda etadi. O'z navbatida, qarzga xizmat ko'rsatish nisbatini hisoblashda kreditlar bo'yicha foiz stavkalar va muddatlarining inobatga olinishi qarz yuki darajasini boshqa ko'rsatkichlarga nisbatan aniqroq ko'rsata oladi.

**1-rasm. Jismoniy shaxs kreditlari bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatish nisbati (kreditlar qoldig'i bo'yicha), %**



**2-rasm. Jismoniy shaxs kreditlari bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatish nisbati (ajratilgan kreditlar bo'yicha), %**



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.


O'z navbatida, jismoniy shaxslarning qarzga xizmat ko'rsatish nisbati aynan kredit oluvchilar bo'yicha tahlili 2018–2021-yillarda kreditlar qoldig'i bo'yicha hisoblanganda 8 foiz bandga, ajratilgan kreditlar bo'yicha esa 17 foiz bandga pasayganligini ko'rsatmoqda. Ta'kidlash joizki, o'tgan uzoq davrda ajratilgan kreditlar hisobiga sotib olingan kredit ob'ektlarining narxi

<sup>1</sup> Qarzga xizmat ko'rsatish nisbati bo'yicha batafsil ma'lumot uchun: Dynan, K., K. Johnson and K. Pence (2003): "Recent changes to a measure of US household debt service", Federal Reserve Bulletin, vol 89, pp 417–26 va Drehmann, M. and M. Juselius (2012): "Do debt service costs affect macroeconomic and financial stability?", BIS Quarterly Review, September, pp 21-34.

inflyatsiya ta'sirida bugungi kundagi bozor narxlariga nisbatan sezilarli past hamda kredit oluvchilarning joriy daromadlari kredit majburiyatlari bo'yicha to'lovlarga nisbatan ancha yuqori darajada shakllangan. Bu esa, jismoniy shaxslarning jami kreditlari bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatish nisbatining pastroq darajada shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, kredit turlari bo'yicha muddatlar, foizlar hamda kredit oluvchilar soni orasidagi farqlarning kattaligi natijasida jismoniy shaxslarning qarzga xizmat ko'rsatish nisbatida chetlashish yuzaga keladi.

Shu bilan birga, jismoniy shaxslarning jami kreditlari bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatish nisbati tahlili faqatgina umumiy suratni ko'rishga, alohida kredit turlari bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatish nisbatlari esa makroprudensial siyosat instrumentlarini joriy etish va ularni o'zgartirib borishga imkon beradi. Shu sababli, aholining bank kreditlari bo'yicha qarz yukini kredit turlari, xususan mikroqarz, ipoteka va iste'mol kreditlari bo'yicha alohida tahlil qilishni taqozo etmoqda.

**3-rasm. Kredit turlari bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatish nisbati (ajratilgan kreditlar bo'yicha), %**



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Jami iste'mol krediti bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatish nisbati 2020–2021-yillarda o'sib, 2021-yilda kredit oluvchilar ixtiyoridagi daromadlarining 56 foizi kreditlar bo'yicha majburiyatlarini bajarishga

yo'naltirilgan. Ushbu ko'rsatkichning o'sishini jismoniy shaxslarga ajratilgan iste'mol kreditlar hajmining oshishi hamda bir kredit oluvchiga to'g'ri keladigan kredit shartnomalar miqdorining oshishi (2018–2021-yillar davomida 1,1 tadan 1,2 tagacha o'sgan) bilan izohlanadi.

Ipoteka kreditlari bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatish nisbati 2019–2020-yillardagi pasayishdan so'ng 2021-yilda o'sish trendiga ega bo'lib, 65 foizga yetdi. 2020-yilda 2019-yilga nisbatan ipoteka kredit oluvchilar sonining 26 foizga kamayganligi hamda ipoteka kreditlar hajmining 12 foizga oshganligi ipoteka kreditlari bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatish nisbatining keskin ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari, mikroqarz bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatish nisbati dinamikasida pasayish kuzatilib, 2021-yilda ushbu ko'rsatkich 13 foizni tashkil etdi.

Xalqaro amaliyotda qarzga xizmat ko'rsatish nisbatini hisoblashda bank tizimidan tashqaridagi muddatli to'lov asosida beriladigan kreditlar ham inobatga olinadi. O'zbekiston misolida aholining jami kreditlari bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatish nisbati tahlilida faqatgina banklar tomonidan ajratilgan kreditlar inobatga olinganligi sababli ushbu ko'rsatkich pastroq darajada shakllangan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, qarzga xizmat ko'rsatish nisbati kredit shartnomalarida ko'rsatilgan muddatlar asosida hisoblanishini inobatga olganda, ushbu ko'rsatkich kredit oluvchilar daromadlarining qarzlarni so'ndirishga yo'naltiriladigan summaning eng kam miqdorini ifodalaydi. Bu esa, amaldagi qarzga xizmat ko'rsatish nisbati hisoblangan ko'rsatkichdan yuqori bo'lishi mumkin.

Qarzga xizmat ko'rsatish nisbatini hisoblashda bugungi kundagi o'sib borayotgan qo'shimcha moliyaviy majburiyatlar qamrab olinmagan. Xususan, mamlakatimizda chakana savdo do'konlarida iste'mol tovar va xizmatlari, birlamchi hamda ikkilamchi bozorlarda esa, avtoulavlarni muddatli to'lov asosida sotib olish amaliyoti ommalashmoqda. Bundan tashqari, keng ko'lamli uy-joy qurilish ishlari jadallashuvi ko'chmas mulkning birlamchi bozorida muddatli to'lov asosida bank tizimidan tashqari uylar xarid qilish imkonini bermoqda. Mazkur qo'shimcha moliyaviy majburiyatlarni turli xil so'rovlar o'tkazish orqali baholash borasida tegishli ishlar amalga oshirilmoqda.

## Qarzga xizmat ko'rsatish nisbati metodologiyasi

Kredit oluvchi jismoniy shaxslarning qarzga xizmat ko'rsatish nisbati quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$DSR_{j,t} = \frac{i_{j,t}}{(1 - (1 + i_{j,t})^{-s_{j,t}})} * \frac{D_{j,t}}{Y_{j,t}}$$

Bu yerda:

$DSR$  – qarzga xizmat ko'rsatish nisbati

$i$  – ajratilgan kreditlarning o'rtacha tortilgan yillik foiz stavkasi

$s$  – ajratilgan kreditlarning o'rtacha tortilgan yillik muddati

$D$  – kredit bo'yicha qoldiq summasi

$Y$  – kredit oluvchilarning ixtiyoridagi yillik daromadi

$j$  – kredit turi

$t$  – yillar